

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKMUXAMEDOVA MALIKA ISKANDARBEKOVNA

NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY
SALOHİYATINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(“O‘ZBEKNEFTGAZ” AJ MISOLIDA)

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFARATI

Toshkent - 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Bekmuxamedova Malika Iskandarbekovna

Neft va gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish
mexanizmini takomillashtirish (“UZBEKNEFTEGAZ” AJ misolida)..... 3

Бекмухамедова Малика Искандарбековна

Совершенствование механизма повышения экономического
потенциала предприятий нефтегазовой промышленности
(на примере АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ».)..... 29

Bekmukhamedova Malika Iskandarbekovna

Improvement of the mechanism for enhancing the economic
potential of oil and gas industry enterprises (on the example of JSC
“UZBEKNEFTEGAZ”)..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKMUXAMEDOVA MALIKA ISKANDARBEKOVNA

**NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY
SALOHİYATINI OSHIRISH MEXANİZMINI TAKOMILLASHTIRISH
("O'ZBEKNEFTGAZ" AJ MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFARATI**

Toshkent - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.3.PhD/Iqt5649. raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasida (www.tsue.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarova Ra’no Rustamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xashimova Naima Obidovna
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qurbonova Mehriniso Ne’matjonovna
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat
neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «_____» _____soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel/Faks: (+99871) 239-01-59, e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiyasi (PhD) bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel/Faks: (+99871) 239-01-59, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» kuni tarqatildi.
(2026-yil «_____» dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S. Qo‘chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida neft-gaz sanoatini rivojlantirishda kapital tuzilmasini samarali shakllantirish va korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning optimal manbalarini tanlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. AQSH, Norvegiya, Kanada hamda Yaqin Sharq davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, neft-gaz kompaniyalarining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan o'z mablag'lari va jalb qilingan moliyaviy resurslarning samarali uyg'unlashuvi, investitsion moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlaridan foydalanish hamda korxonalarning iqtisodiy salohiyatini boshqarishda strategik yondashuvlarni joriy etish bilan belgilanadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar, jumladan neft-gaz tarmog'i subyektlari oldida o'z faoliyatini moliyalashtirishning eng maqbul manbalarini tanlash muammosi yuzaga keladi. Muayyan iqtisodiy vaziyat va strategik maqsadlardan kelib chiqib, kompaniyalar o'z moliyaviy resurslaridan foydalanishi, qarz mablag'larini jalb qilishi yoki ushbu ikki manbani birgalikda qo'llashi mumkin. Moliyalashtirish mexanizmini to'g'ri tanlash nafaqat korxonaning joriy moliyaviy holatiga, balki uning uzoq muddatli barqaror rivojlanish istiqbollari ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, neft-gaz sanoati korxonalarining, xususan, "O'zbekneftgaz" AJning iqtisodiy salohiyatini boshqarish va uni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kapitalning optimal tuzilmasini shakllantirish, moliyaviy-investitsion siyosatni takomillashtirish, shuningdek, moliyalashtirishning oqilona manbalarini tanlashga qaratilgan samarali yondashuv va usullarni ishlab chiqish neft-gaz sektori korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligi hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Yoqilg'i-energetika majmuasi tarmoqlari, jumladan neft-gaz sanoati korxonalari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida strategik muhim o'rin egallaydi. Ularning barqaror va samarali faoliyati mamlakat xalq xo'jaligining deyarli barcha sohalariga hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mazkur tarmoqlarni rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilish hamda yoqilg'i-energetika sektori korxonalarini raqamlashtirishga qaratilgan muhim qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-77-sonli "Yoqilg'i-energetika tarmog'ida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va "raqamli energonazorat" tizimini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni¹ energiya resurslarini boshqarish jarayonlari shaffofligini

¹ Указ Президента Республики Узбекистан, от 24.05.2023 г. № УП-77 «О совершенствовании механизмов государственного контроля и внедрении системы «цифровой энергоконтроль» в топливно-энергетической отрасли», <https://lex.uz/docs/6472930>

oshirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. Shuningdek, Prezidentning 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-sonli “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni² sanoat o‘shirishini rag‘batlantirish, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish hamda investitsion muhitni mustahkamlashga qaratilgan. Bundan tashqari, Prezidentning 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-6010-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni milliy iqtisodiyot, shu jumladan neft-gaz tarmog‘ining samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishining uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shu bilan birga, Prezidentning 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4388-sonli “Iqtisodiyot va aholini energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori³ neft-gaz majmuasini moliyaviy jihatdan mustahkamlash hamda boshqaruv yondashuvlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bugungi kunda “O‘zbekneftgaz” AJ misolida neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi nafaqat saqlanib qolmoqda, balki yanada kuchaymoqda. Mazkur masalani chuqur o‘rganish zarurati bir tomondan ushbu tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi yuqori ahamiyati bilan, ikkinchi tomondan esa soha korxonalarining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali vositalarni ishlab chiqish ehtiyoji bilan izohlanadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya shakllantirilgan ilmiy ishning tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy taraqqiyoti, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korxonalar kapitalini shakllantirish, boshqarish va undan samarali foydalanish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida an‘anaviy ravishda muhim o‘rin egallab keladi. Mazkur yo‘nalish bir necha asrlar davomida iqtisodiy fan klassiklari tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, bu ularning fundamental ilmiy asarlarida o‘z aksini topgan. Kapitalni shakllantirish va undan foydalanish masalalarini tadqiq etishga salmoqli hissa qo‘shgan xorijiy olimlar qatorida kapital va jamg‘arish nazariyasining asoslarini yaratgan V. Knorring, investitsiyalar va kapitalning iqtisodiy o‘shirishga ta‘sirini o‘rgangan S. Al-Fattah, innovatsiyalar hamda kapitalning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini tadqiq qilgan N. Gunningem, kapital va iqtisodiy sikllar nazariyasini rivojlantirgan N. Bret-Ruzo, shuningdek, kapital tuzilmasi va korxonalarni moliyaviy boshqarishning zamonaviy nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan J. Hunt, M. Hidayat, O. Anozzi va Y. Guo kabi tadqiqotchilarni

² Указ Президента Республики Узбекистан, от 12.10.2023 г. № УП-169 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности и её базовых отраслей», <https://lex.uz/ru/docs/6633678>

³ Постановление Президента Республики Узбекистан, от 09.07.2019 г. № ПП-4388 «О мерах по стабильному обеспечению экономики и населения энергоресурсами, финансовому оздоровлению и совершенствованию системы управления нефтегазовой отрасли», <https://lex.uz/uz/docs/4410281>

alohida ta'kidlash mumkin.⁴

O'zbekiston sharoitida kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda investitsion salohiyatini kuchaytirish masalalari bir qator mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarga H. Nazarov, N. Xolmuhamedov, Sh. Jumayev, J. Jo'rayev, A. Mavlanov, B. Yo'ldoshev, F. Usmonov, R. Karimov, S. Jo'rayev, Sh. Turdiyev va boshqa olimlar salmoqli hissa qo'shgan.⁵ Ularning ilmiy ishlarida korxonalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish, kapital tuzilmasini tahlil qilish, investitsion faollikni oshirish hamda korxonalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga oid metodik yondashuvlarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan.

Bevosita O'zbekiston Respublikasi neft-gaz sanoatiga tatbiqan tarmoqning barqaror rivojlanishini boshqarish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda moliyaviy-investitsion mexanizmlarni takomillashtirishning ayrim jihatlarini mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur muammoning rivojlanishiga A. Mirzayev, I. Abdullayev, J. Ismoilov, A. Nurmatov, F. Dadaboyev, D. Sharipov, Z. Qosimov hamda boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari muhim hissa qo'shgan.⁶ Ular neft-gaz

⁴ Кнорринг, В. И. Экономика природопользования в нефтегазовой промышленности / В. И. Кнорринг. – М.: Наука, 2020. – 298 с. Al-Fattah, S. M. Global Energy Transition and its Impact on Oil & Gas / S. M. Al-Fattah // Energy Reports. – 2021. – Vol. 7. – P. 4102–4112. Gunningham, N. Managing the Energy Trilemma: The Case of Uzbekistan / N. Gunningham // Energy Policy. – 2020. – Vol. 146. – P. 111820. Bret-Rouzaut N. Economics of oil and gas production // The Palgrave handbook of international energy economics / ed. by J. D. Hunt. – Cham: Springer International Publishing, 2022. – P. 3–22. Hunt J. D., Nascimento A., Nascimento N., Vieira L. W., Romero O. J. Possible pathways for oil and gas companies in a sustainable future: From the perspective of a hydrogen economy // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2022. – Vol. 160. – Art. 112291. Hidayat M., Bachtiar N., Primayesa E. The influence of investment, energy infrastructure, and human capital towards convergence of regional disparities in Sumatra Island, Indonesia: Using oil and gas data and without oil and gas // International Journal of Energy Economics and Policy. – 2023. – Vol. 13, No. 4. – P. 139–149. Anozie O. R., Muritala T. A., Ininm V. E., Yisau N. S. Impact of capital structure on financial performance of oil and gas firms in Nigeria // Future Business Journal. – 2023. – Vol. 9, No. 1. – Art. 11. Guo Y., Yang Y., Bradshaw M., Wang C., Blondeel M. Globalization and decarbonization: Changing strategies of global oil and gas companies // Wiley Interdisciplinary Reviews: Climate Change. – 2023. – Vol. 14, No. 6. – Art. e849.

⁵ Назаров, Х. М. Инновационное развитие нефтегазовой промышленности Узбекистана / Х. М. Назаров, Д. Ж. Муродов // Нефтегаз и экономика. – 2021. – № 4. – С. 47–55. Холмухамедов, Н. Р. Проблемы и направления повышения инвестиционной привлекательности нефтегазового сектора Узбекистана / Н. Р. Холмухамедов // Экономика и образование. – 2021. – № 3. – С. 92–99. Жумаев, Ш. Э. Формирование экономического потенциала нефтегазовой отрасли в Узбекистане / Ш. Э. Жумаев. – Ташкент: Университетская книга, 2022. – 192 с. Джуроев, Ж. А. Повышение эффективности использования производственного потенциала нефтегазовых предприятий / Ж. А. Джуроев // Экономика и инновационные технологии. – 2021. – № 6. – С. 42–48. Мавланов, А. Х. Совершенствование механизмов инвестиционного обеспечения в нефтегазовой промышленности / А. Х. Мавланов. – Ташкент: Экономика, 2020. – 215 с. Юлдашев, Б. Ш. Оценка инвестиционной привлекательности нефтегазовых компаний / Б. Ш. Юлдашев // Международный научный журнал «Инновационная экономика». – 2022. – № 1(43). – С. 65–72. Усманов, Ф. У. Цифровизация в нефтегазовой промышленности: вызовы и возможности / Ф. У. Усманов // Технологии и рынок нефти и газа.

– 2021. – № 5. – С. 24–29. Каримов, Р. Х. Энергетическая безопасность и экономическое развитие Узбекистана / Р. Х. Каримов. – Ташкент: Университетская книга, 2019. – 234 с. Жораев, С. Э. Совершенствование модели управления инвестициями в ТЭК / С. Э. Жораев. – Ташкент: Фан, 2021. – 180 с. Турдиев, Ш. И. Методология оценки производственного потенциала в топливно-энергетическом секторе / Ш. И. Турдиев // Экономика и финансы. – 2020. – № 5. – С. 58–63.

⁶ Мирзаев, А. Н. Управление ресурсным потенциалом в нефтегазовой отрасли / А. Н. Мирзаев // Экономика и статистика. – 2021. – № 3. – С. 39–46. Абдуллаев, И. Р. Современные подходы к цифровой трансформации нефтегазовых предприятий / И. Р. Абдуллаев // Управление в экономических системах. – 2022. – № 2. – С. 88–Исмаилов, Ж. М. Роль стратегического планирования в повышении экономического потенциала нефтегазовой отрасли / Ж. М. Исмаилов // Экономика и управление. – 2020. – № 6. – С. 31–37. Нурматов, А. К. Оценка влияния инвестиций на производственные показатели нефтегазовых предприятий Узбекистана / А. Нурматов // Бюллетень науки и практики. – 2021. – № 10(55). – С. 274–280. Дадабоев, Ф. Р. Повышение

majmuasi korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish, investitsion siyosatni takomillashtirish va tarmoqni strategik rivojlantirish masalalarini o'rgangan.

Muammoning ayrim jihatlarini yetarlicha tadqiq etilganiga qaramasdan, zamonaviy chaqiriqlar va tarmoq oldida turgan vazifalar sharoitida neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini kompleks takomillashtirish masalalari hali ham qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi. Xususan, moliyaviy menejmentning zamonaviy yondashuvlari, strategik boshqaruv va raqamlashtirish jarayonlarini "O'zbekneftgaz" AJ kabi yirik tarmoq korxonalarining iqtisodiy salohiyatini barqaror oshirish bilan integratsiyalash masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsiya doirasida samarali mexanizmlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan. **Tadqiqotning maqsadi** "O'zbekneftgaz" AJ faoliyatini kompleks tahlil qilish asosida neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir nazariy qoidalar hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ular korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatiga oid nazariy-metodologik asoslarni ochib berish, uning mohiyati va tarkibiy tuzilmasini aniqlash;
- neft-gaz tarmog'i korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va umumlashtirish hamda uni O'zbekiston sharoitida samarali qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;
- neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi va metodik yondashuvni ishlab chiqish;
- "O'zbekneftgaz" AJ iqtisodiy salohiyatining hozirgi holati, tarkibi va dinamikasini baholash, undan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;
- "O'zbekneftgaz" AJ iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda korxonaning uzoq muddatli barqaror va samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida uning rivojlanish prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti "O'zbekneftgaz" AJning kapital tuzilmasidir.

Tadqiqotning predmeti kapital tuzilmasining o'zgarishi va undan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar, rivojlanish ssenariylari hamda prognozlash jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etib, u neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini o'zaro bog'liq elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida korxonalar iqtisodiy salohiyatini shakllantirishning nazariy jihatlarini

эффективности использования производственного потенциала нефтегазовых компаний / Ф. Р. Дадабоев // Экономика и образование. – 2021. – № 4. – С. 102–109. Шарипов, Д. Н. Инновационные механизмы повышения эффективности нефтегазового производства / Д. Н. Шарипов. – Ташкент: Фан, 2022. – 190 с. Касымов, З. Ш. Механизмы устойчивого роста нефтегазовой отрасли в условиях экономической трансформации / З. Ш. Касымов // Журнал экономики и инновационных технологий. – 2022. – № 1. – С. 73–81.

o'rganishda monografik usul hamda nazariy umumlashtirish metodidan foydalanildi. "O'zbekneftgaz" AJ iqtisodiy salohiyatining hozirgi holati va dinamikasini tahlil qilishda statistik hamda qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Korxona iqtisodiy resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash va iqtisodiy salohiyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash iqtisodiy-matematik usullar, jumladan korrelyatsion-regression tahlil asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"O'zbekneftgaz" AJ faoliyatining o'ziga xos jihatlari, tarmoq xususiyatlari hamda korxona samaradorligi va barqarorligiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirishga oid nazariy-metodik yondashuv ishlab chiqilgan;

neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini shakllantirish va undan foydalanishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, jumladan kapital tuzilishi, investitsion jozibadorlik, texnologik yangilanish va boshqaruv samaradorligi aniqlanib, ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

korxona iqtisodiy salohiyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi moliyaviy, ishlab chiqarish va innovatsion omillarni integrallashgan holda baholash hamda istiqboldagi o'zgarishlarini prognozlash imkonini beruvchi regression model asosidagi kompleks baholash metodikasi takomillashtirilgan;

"O'zbekneftgaz" AJ iqtisodiy salohiyatini prognozlashga qaratilgan ko'p omilli ekonometrik model asosida 2037-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashga mo'ljallangan ko'rsatkichlar tizimi hamda metodikasi ishlab chiqilib, ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu yondashuv "O'zbekneftgaz" AJ iqtisodiy resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va ularning holatini kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi;

- "O'zbekneftgaz" AJ iqtisodiy salohiyatining tarkibi va dinamikasi baholanib, undan foydalanish samaradorligi hamda korxona ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy tendensiyalar va omillar aniqlangan;

- neft-gaz tarmog'i xususiyatlarini inobatga olgan holda kapital tuzilmasini optimallashtirish va korxona resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy salohiyatni boshqarish mexanizmini takomillashtirishning universal algoritmi taklif etilgan;

- iqtisodiy salohiyatni baholashga mo'ljallangan ko'rsatkichlar matritsasi ishlab chiqilib, "O'zbekneftgaz" AJ misolida amaliy jihatdan sinovdan o'tkazilgan. Mazkur matritsa universal xususiyatga ega bo'lib, undan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari amaliyotida ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tizimli, iqtisodiy-statistik, regressiyaviy va ssenariyli yondashuvlarning maqsadga muvofiq qo'llanilgani, ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda "O'zbekneftgaz" AJning rasmiy hisobot va statistik ma'lumotlari asosida shakllantirilgani bilan belgilanadi. Shuningdek, olingan natijalarning ishonchliligi

nazariy xulosalarning amaliy hisob-kitoblar bilan o‘zaro mosligi, prognoz va amaliy ko‘rsatkichlarning yaqinligi hamda ilmiy natijalarning “O‘zbekneftgaz” AJ faoliyatiga joriy etilgani va tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati yoqilg‘i-energetika tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va raqobat ustunliklarini ta‘minlash maqsadida kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Mazkur ilmiy natijalardan O‘zbekiston sanoat korxonalarini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa uning asosiy qoidalari va tavsiyalaridan nafaqat neft-gaz sanoati korxonalarida, balki O‘zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida ham rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, ta‘lim jarayonida foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“O‘zbekneftgaz” AJ faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, tarmoq xususiyatlari hamda korxona samaradorligi va barqarorligiga ta‘sir etuvchi tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirishga oid nazariy-metodik yondashuv ishlab chiqilgan oid nazariy-metodik yondashuvdan “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan strategik rejalashtirish va investitsion dasturlar samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligining 2026-yil 18-iyundagi 04-11-3055-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning joriy etilishi natijasida korxonaning iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta‘sir etuvchi tashqi va ichki omillarni tizimli baholash, investitsiya resurslarini ustuvor yo‘nalishlarga samarali taqsimlash hamda modernizatsiya jarayonlarini strategik boshqarish imkoniyati yaratilgan;

neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini shakllantirish va undan foydalanishga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar, jumladan kapital tuzilishi, investitsion jozibadorlik, texnologik yangilanish va boshqaruv samaradorligi aniqlash berilgan takliflar “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan korxona faoliyati samaradorligini baholash va rivojlanish ustuvorliklarini belgilash jarayonida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligining 2026-yil 18-iyundagi 04-11-3055-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning moliyaviy, investitsion, texnologik va boshqaruv salohiyatini o‘zaro bog‘liqlikda baholash, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish hamda strategik boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasini kuchaytirish imkoniyati yaratilgan;

korxona iqtisodiy salohiyatining shakllanishiga ta‘sir etuvchi moliyaviy, ishlab chiqarish va innovatsion omillarni integrallashgan holda baholash hamda istiqboldagi o‘zgarishlarini prognozlash imkonini beruvchi regression model

asosidagi kompleks baholash metodikasi takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar "O'zbekneftgaz" AJ faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligining 2026-yil 18-iyundagi 04-11-3055-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi, investitsion faollik, mehnat unumdorligi va tushum ko'rsatkichlarini kompleks baholash imkoniyatlari kengaytirilgan;

"O'zbekneftgaz" AJ iqtisodiy salohiyatini prognozlashga qaratilgan ko'p omilli ekonometrik model asosida 2037-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha berilgan takliflar "O'zbekneftgaz" AJ faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligining 2026-yil 18-iyundagi 04-11-3055-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu yondashuv korporativ investitsion rejalashtirish, uzoq muddatli rivojlanish parametrlarini belgilash va strategik boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 2 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilinib, aprobatysidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 4tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarsiz 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon etilgan, uning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Neft-gaz sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirishning nazariy-ilmiy asoslari"** deb nomlangan **birinchi bobida** neft-gaz majmuasi korxonalarining iqtisodiy salohiyati mohiyati, tarkibi va unga ta'sir etuvchi omillarni belgilovchi konseptual hamda metodologik yondashuvlar yoritilgan.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati zamonaviy iqtisodiy fan va amaliy boshqaruv tizimining fundamental hamda murakkab kategoriyalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat tashkilot tasarrufidagi ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat va intellektual resurslarning mavjudligini, balki ushbu resurslarni joriy va istiqboldagi xo'jalik faoliyati doirasida samarali safarbar etish hamda ulardan oqilona foydalanish imkoniyatini ham ifodalaydi. Iqtisodiy salohiyat korxonaning raqobatbardoshligi, barqarorligi va innovatsion faolligi darajasini belgilovchi sifat

va miqdor ko'rsatkichlarini o'zida mujassam etgan integral tavsif sifatida namoyon bo'ladi.⁷

Strategik menejment nuqtai nazaridan iqtisodiy salohiyat korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish va barqaror o'sishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi ichki imkoniyatlar majmui sifatida qaraladi. U aktivlar hajmi va tarkibi, moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari, tashkiliy-boshqaruv mexanizmi, xodimlarning malaka darajasi hamda texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kabi asosiy tarkibiy qismlarni qamrab oladi.⁸

Korxona iqtisodiy salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va uning asosiy elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaqqol ifodalash maqsadida uni sxema ko'rinishida tasvirlash maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tuzilishi⁹

Korxona iqtisodiy salohiyatining markaziy va tizimni shakllantiruvchi asosiy tarkibiy qismlaridan biri kapital hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda kapital an'anaviy ravishda qo'shilgan qiymat yaratish jarayoniga jalb etilgan turli resurs shakllarini birlashtiruvchi ko'p qirrali va murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy iqtisodiy fan kapitalni nafaqat moddiy va moliyaviy mablag'lar yig'indisi, balki bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslardan foydalanishning institutsional hamda xulq-atvor jihatlarini o'zida mujassam etgan faol ishlab chiqarish omili sifatida ham ko'rib chiqadi. Kapital korxona ishlab chiqarish tizimining faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi, investitsion loyihalarni amalga oshirish, faoliyat ko'lami va yo'nalishlarini belgilash, foydalilik hamda rentabellik darajasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanib, o'zini o'zi moliyalashtirish hamda tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini belgilaydi. Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy salohiyatini, ayniqsa kapitalning tarkibi, uni shakllantirish manbalari va undan samarali foydalanish mexanizmlarini tadqiq etish muhim ilmiy hamda amaliy vazifa hisoblanadi. Bu masala strategik ahamiyatga ega tarmoqlar, xususan neft-gaz sanoati korxonalari faoliyati doirasida

⁷ Ахметов, Р. Р. Повышение эффективности функционирования нефтегазового комплекса в условиях устойчивого развития / Р. Р. Ахметов. – М.: Инфра-М, 2019. – 228 с.

⁸ Баранов, П. А. Управление инвестиционной деятельностью в топливно-энергетическом комплексе / П. А. Баранов. – СПб.: Питер, 2021. – 192 с

yanada dolzarb tus oladi, chunki kapital resurslarini optimallashtirish energetik xavfsizliknita'minlash, innovatsion yangilanish va barqaror iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liqdir. Jahon amaliyoti neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga doir turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunda asosiy e'tibor nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, balki ichki tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va ekologik transformatsiyani amalga oshirishga ham qaratiladi. Jahon neft-gaz bozorining yetakchi ishtirokchilari hisoblangan AQSH, Kanada, Norvegiya, Xitoy, BAA, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar iqtisodiy sharoitlar, resurs bazasi hamda davlat tomonidan tartibga solish xususiyatlarini inobatga olgan holda neft-gaz sektorini barqaror rivojlantirishning o'ziga xos modellari shakllantirgan.

1 Jadval

Neft va gaz sanoatida mehnat unumdorligi va ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar⁹

Davlat	Mehnat unumdorligi (barrel neft/kun/1 xodim)	ITQ (Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga investitsiyalar, tarmoq YaIMdan %)	Hamroh gazni utilizatsiya qilish (%)
AQSh	120	2.5	96
Kanada	95	1.8	94
Norvegiya	110	2.9	98
Qatar	130	1.2	91
BAA	125	1.5	89
Saudiya Arabistoni	140	1.0	87
Quvayt	115	0.9	85
Avstraliya	105	1.7	92
Buyuk Britaniya	90	2.0	93
Xitoy	80	2.1	88

1-jadval ma'lumotlari mehnat unumdorligi darajasi bilan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari sohasidagi investitsion faollik ko'lami o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, neft-gaz tarmog'ida bir nafar xodim hisobiga kuniga o'rtacha 120 barrel mahsulot ishlab chiqariladigan AQSHda innovatsion faoliyatga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi yiliga 6 mlrd dollardan oshadi. Shunga o'xshash holat Norvegiyada ham kuzatiladi. Ushbu mamlakatda qazib olish hajmi nisbatan past bo'lishiga qaramasdan, mehnat unumdorligi yuqori darajada saqlanib qolmoqda va bir xodim hisobiga 110 barreldan ortiq mahsulot to'g'ri keladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur raqamlashtirish hamda konlarni boshqarishda intellektual tizimlarni joriy etish bilan bevosita bog'liqdir.

Korxonalar iqtisodiy salohiyatini oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilish jarayonida "iqtisodiy salohiyat" tushunchasi resurs bazasi bilan bir qatorda korxonaning tashkiliy va boshqaruv imkoniyatlarini ham qamrab oluvchi ko'pqirrali iqtisodiy kategoriya ekanligi aniqlandi. Iqtisodiy tafakkurning turli maktablari kapital va ishlab chiqarish salohiyati mohiyatiga nisbatan o'ziga xos yondashuvlarni ilgari surgan bo'lsada, ularning barchasi iqtisodiy salohiyatning biznes barqarorligi

⁹ UN. Transforming Energy Systems for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2021. – 192 p.

va raqobatbardoshligini ta'minlashdagi muhim o'rni borligini e'tirof etadi. Shu nuqtai nazardan kapital nafaqat moliyalashtirish manbai, balki ishlab chiqarish o'sishi va texnologik yangilanishning asosiy omili sifatida ham namoyon bo'ladi.

Neft-gaz sanoatida iqtisodiy salohiyatni shakllantirishning tarkibi va xususiyatlarini o'rganish natijasida korxonalarning barqaror rivojlanishi faqat o'z mablag'lari va qarz resurslarining samarali uyg'unligi, aktivlarning muvozanatlashgan tarkibi hamda zamonaviy boshqaruv usullaridan faol foydalanish asosida ta'minlanishi mumkinligi aniqlangan. Shuningdek, tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish-moliyaviy barqarorligi kapital sifati va tarkibi, asosiy fondlarning eskirish darajasi, kadrlar tayyorgarligi hamda innovatsion yechimlarning operatsion faoliyatga integratsiyalashuv darajasiga bevosita bog'liqligi aniqlangan.

Xalqaro tajribani tahlil qilish neft-gaz kompaniyalari iqtisodiy salohiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilovchi bir qator muhim omillarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Ular qatoriga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltiriladigan investitsiyalarning yuqori darajasi, davlat tomonidan bevosita va bilvosita rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi, ishlab chiqarish jarayonlarini keng ko'lamda raqamlashtirish hamda tashkiliy tuzilmalarning moslashuvchanligi kiradi. AQSH, Norvegiya, Xitoy va BAA kabi davlatlar tajribasi ishlab chiqarish bazasini kompleks yangilash hamda barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan yondashuv tarmoqning uzoq muddatli o'sishi uchun mustahkam asos yaratishini ko'rsatdi.


Dissertatsiyaning **“O'zbekneftgaz” AJ iqtisodiy salohiyatining hozirgi holati va tahlili**” deb nomlangan **ikkinchi bobida** O'zbekiston Respublikasi neft-gaz majmuasi korxonalarining rivojlanish darajasi va faoliyat yuritish holati kompleks ravishda tahlil qilingan. Unda “O'zbekneftgaz” AJ faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish bo'linmalari tarkibi, moliyaviy-iqtisodiy natijalar dinamikasi, shuningdek kompaniyaning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini belgilovchi omillar yoritilgan.

“O'zbekneftgaz” AJ O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasi tizimida markaziy o'rin egallab, mamlakat energetik xavfsizligini ta'minlashda muhim subyektlardan biri hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati sifatida u uglevodorod xomashyosini qidirish va qazib olishdan boshlab, uni qayta ishlash, saqlash hamda neft-gaz mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilishgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish siklini qamrab oluvchi zamonaviy vertikal integratsiyalashgan tuzilmani o'zida mujassam etadi.

Bugungi kunda “O'zbekneftgaz” AJ ko'p bosqichli korporativ tuzilma sifatida faoliyat yuritib, uning tarkibiga 50 dan ortiq tashkilot kiradi. Ular qatorida xalqaro ishtirokdagi 13 ta qo'shma korxona hamda uglevodorod resurslarini qidirish, qazib olish, qayta ishlash va sotishni amalga oshiruvchi 10 ta asosiy sho'ba korxona mavjud. Mazkur korxonalar 185 ta konning 124 tasini o'zlashtirish bilan shug'ullanadi. Kompaniya faoliyati nafaqat sanoat ishlab chiqarishi va xomashyo eksportini, balki milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, budget daromadlarini shakllantirish, bandlikni ta'minlash hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashni ham qamrab oladi.

Hozirgi vaqtda “O'zbekneftgaz” AJning gaz tayyorlash bo'yicha loyihaviy ishlab chiqarish quvvati yiliga 76,5 mlrd kub metrni, neftni qayta ishlash quvvati esa 141 ming tonnani tashkil etadi. Bundan tashqari, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmi yiliga 679,6 ming tonnaga, texnik oltingugurt ishlab chiqarish hajmi esa 414,5 ming tonnaga yetmoqda. Bu esa kompaniyaning uglevodorodlarni qayta ishlash


sohasidagi yirik milliy operator sifatidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. 2023-yilda “O‘zbekneftgaz” AJ tasarrufida 108 ta neft va 77 ta gaz koni mavjud bo‘lgan. Shu bilan birga, neft konlarining asosiy qismi faol o‘zlashtirilayotgan bo‘lsa, gaz konlarining sezilarli qismi konservatsiya holatida saqlangan (2.1-rasm).



2-rasm. 2023-yilda “O‘zbekneftgaz” AJ konlarining tuzilishi¹⁰

Kompaniyaning ekspluatatsion quduqlar fondi jami 2402 tani tashkil etadi. Shundan 1276 tasi neft, 1126 tasi esa gaz quduqlaridan iborat. Uglevodorodlarni qazib olish Muborak, Sho‘rtan, Gazli, Andijon (Vodiy) neft-gaz qazib chiqarish boshqarmalari hamda Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi kabi yirik ishlab chiqarish maydonlarida amalga oshiriladi. Mazkur boshqarmalarning har biri umumiy qazib olish hajmiga salmoqli hissa qo‘shib, ishlab chiqarishning hududiy muvozanatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi (2.2-rasm).

Qazib olingan uglevodorod xomashyosi to‘liq sanoat qayta ishlash bosqichidan o‘tkazilib, natijada strategik ahamiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ular qatoriga suyultirilgan tabiiy gaz, polietilen, oltingugurt, benzin, dizel yoqilg‘isi, aviakerosin, mazut va koks kiradi.¹²¹¹ Ushbu mahsulotlar ichki bozorda energetika, transport va sanoat tarmoqlari ehtiyojlarini qondirish bilan birga, xorijiy davlatlarga ham eksport qilinib, mamlakat iqtisodiyotiga valyuta tushumlarini oshirishga xizmat qiladi.



3-rasm. Neft va gaz qazib olish boshqarmalari tomonidan tabiiy gaz qazib olish¹²

¹⁰ “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹¹ Каримова, Г. Т. Проблемы ресурсной эффективности в нефтегазовой промышленности / Г. Т. Каримова // Журнал экономики и управления. – 2021. – № 4. – С. 34–39.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Manba: “O‘zbekneftgaz” AJ

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun yangi obyektlarni qurish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan yirik investitsiyalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bunda geologik-qidiruv ishlarini kengaytirish, konservatsiya qilingan hamda yangi konlarni foydalanishga topshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni faol joriy etish, yuqori rentabelli neft-kimyo mahsulotlari va muqobil yoqilg'i turlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu tariqa, "O'zbekneftgaz" AJ moslashuvchan, texnologik jihatdan rivojlangan va barqaror o'sishga yo'naltirilgan yangi avlod kompaniyasiga aylanish jarayonini boshdan kechirmoqda.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning iqtisodiy salohiyati va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Neft-gaz sanoati kabi strategik tarmoqlar uchun o'z mablag'lari va qarz mablag'lari o'rtasidagi barqaror muvozanatni saqlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona kapitalining tarkibi nafaqat uning joriy moliyaviy holatini aks ettiradi, balki investitsion jozibadorlik, kreditga layoqatlilik va umumiy ishbilarmonlik faolligini belgilovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'ladi.¹³

"O'zbekneftgaz" AJ kapital tarkibining 2021-2024-yillardagi o'zgarish dinamikasi korxona moliyaviy modelining o'z mablag'lari ulushini oshirish yo'nalishida transformatsiyalanayotganini yaqqol ko'rsatadi. Buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlariga ko'ra (2.1-jadval), kompaniyaning umumiy kapitali 2018-yildagi 77,7 trln so'mdan 2023-yilda 122 trln so'mdan ortiq darajaga yetgan bo'lib, bu 57 foizlik o'sishni anglatadi. Ayniqsa, o'z kapitalining qariyb 2,4 barobaroshib, 27,1 trln so'mdan 64 trln so'mga yetgani e'tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, qarz mablag'lari hajmi nisbatan barqaror saqlanib, 50-58 trln so'm oralig'ida o'zgarib turgan. 2024-yilda ham ushbu tendensiya davom etib, o'z kapitali 61,5 trln so'mni, qarz mablag'lari esa 50,9 trln so'mni tashkil qilgan. Bu esa kompaniyaning ichki moliyaviy resurslari mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

¹³ IMF. Outlook for Oil Exporters in Central Asia. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2021. – 58 p

3-jadval.

“O‘zbekneftegaz” AJ kapital tarkibi dinamikasi (milliard so‘m).¹⁴

Balans moddalarining nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘ZINING KAPITALI							
Ustav kapitali	14415,6	14629,1	21536,4	26780,2	30350,1	34120,2	37980,6
Qo‘shimcha kapital	92,6	92,6	0	0	0	0	0
Zaxira kapitali	1537,1	8863,5	11672,5	12759,0	15480,0	18120,3	20950,0
Maqsadli tushumlar	12797,6	12752,3	12059,9	11711,2	11380,0	11040,1	10720,4
Taqsimlanmagan foyda	-1533,9	-518	1458,5	1590,0	2210,5	2870,1	3450,2
Boshqalar	-162,4	-126,3	36,9	45,0	52,2	58,0	63,4
JAMI	27146,6	35693,2	46764,2	52885,4	59472,8	66208,7	73164,6
QARZ KAPITALI (MAJBURIYATLAR)							
Uzoq muddatli majburiyatlar	24692,2	39152,6	35240,3	43798,4	46850,0	49560,0	52340,0
shu jumladan, kreditorlik qarzi	145,1	1525	1538,3	8859,6	9320,0	9780,0	10250,0
Xaridorlardan olingan avanslar	2,7	2	2,3	2,2	2,1	2,0	1,9
Uzoq muddatli kreditlar	19156,4	37214,8	33584,1	42775,1	45500,0	48100,0	50750,0
Uzoq muddatli qarzlar	5389,9	412,7	24,7	1,7	1,2	0,8	0,5
Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar	143,2	1523,1	1629,2	1019,4	980,0	940,0	900,0
Joriy majburiyatlar	25948,5	8517,4	8114,4	5197,0	4880,0	4510,0	4230,0
shu jumladan, kreditorlik qarzi	22363,7	7636,1	7554,4	5026,5	4700,0	4380,0	4120,0
Yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	13190,3	2985,1	3466	2404,4	2210,0	2050,0	1900,0
Olingan avanslar	1597,9	281,3	2692,5	2358,0	2200,0	2080,0	1950,0
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz	1465,4	392,3	298	153,1	135,0	120,0	105,0
Maqsadli fondlarga to‘lovlar bo‘yicha qarz	780,4	64	26,2	6,4	5,7	4,3	3,5
Ta‘sischilarga qarz	166,6	1565,5	47,5	56,0	52,0	49,0	45,0
Mehnat haqi to‘lash bo‘yicha qarz	187,3	140,1	87	59,6	54,0	48,0	43,0
Qisqa muddatli kreditlar	354,9	156,9	97	51,4	45,0	39,0	34,0
Qisqa muddatli qarzlar	1667,9	0	0	0	0	0	0
Boshqa qisqa muddatli majburiyatlar	6537,8	2932,2	1400,2	108,1	95,0	82,0	70,0
JAMI	50640,7	47670	43354,7	48995,4	51730,7	54070,3	56570,5
JAMI KAPITAL	77787,3	83363,2	90118,9	101880,8	111202,5	120278,0	129734,1

O‘z kapitali tarkibida eng katta ulush hanuz ustav fondiga to‘g‘ri keladi. Uning ulushi 2021-yilda 51,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 4,6 foiz bandga kamaygan. Mazkur pasayish maqsadli tushumlarning ortishi hamda korxonaning 2020-2023-yillarda foydali faoliyat yo‘liga o‘tishi bilan

¹⁴ “O‘zbekneftegaz” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

izohlanadi. Qarz kapitalining ulushi esa aksincha, 2021-yildagi 65 foizdan 2024-yilda 48,1 foizgacha qisqargan. Majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli kreditlar ustunlik qilib, ularning ulushi 97 foizdan ortiqni tashkil etadi. Qisqa muddatli majburiyatlar orasida esa yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar va olingan avanslar asosiy ulushga ega.

“O‘zbekneftgaz” AJning iqtisodiy kapitali ishlab chiqarishning asosiy fondlari bilan bir qatorda operatsion siklning uzluksizligini ta’minlovchi aylanma mablag‘larni ham qamrab oladi. Undan foydalanish samaradorligi fond qaytimi, aktivlar rentabelligi, aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi, moliyaviy barqarorlik va to‘lovga qobiliyatlilik koeffitsiyentlari kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Ushbu indikatorlar resurslardan qay darajada oqilona foydalanilayotganini, investitsiyalarning qaytish sur‘atlarini hamda o‘z va qarz mablag‘lari o‘rtasida optimal muvozanatga erishilgan yoki erishilmaganini aniqlash imkonini beradi.

“O‘zbekneftgaz” AJ iqtisodiy resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash nafaqat moliyaviy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini miqdoriy tahlil qilishni, balki kapital natijadorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni sifat jihatidan chuqur tahlil etishni ham talab qiladi.

“O‘zbekneftgaz” AJda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini miqdoriy baholash uchun resurslardan olinayotgan natijani ifodalovchi asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasini hisoblash maqsadga muvofiqdir. Bunda asosiy indikatorlar sifatida aktivlar rentabelligi, o‘z kapitali rentabelligi, sotuvlar rentabelligi, aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi hamda fond qaytimi koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Mazkur ko‘rsatkichlar korxonaning moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan qay darajada samarali hamda oqilona foydalanayotganini har tomonlama tavsiflash imkonini beradi.

Yanada chuqurroq tahlil maqsadida 2.2-jadval shakllantirilgan bo‘lib, unda 2021-2024-yillar davomida “O‘zbekneftgaz” AJ iqtisodiy resurslaridan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari dinamikasi keltirilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur kontekstda iqtisodiy resurslar deganda faqat kapital qo‘yilmalar emas, balki daromad keltirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan korxonaning barcha aktivlari majmui tushuniladi. Bunga asosiy ishlab chiqarish fondlari va joriy aktivlar bilan bir qatorda tashkiliy-boshqaruv salohiyati hamda to‘plangan kompetensiyalar kabi nomoddiy resurslar ham kiradi.

“O‘zbekneftgaz” AJda iqtisodiy resurslardan (kapitaldan) foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari dinamikasi (milliard so‘m)¹⁵


Balans moddalarining nomi	2021	2022	2023	2024
Kompaniya kapitali (aktivlar)	77787,3	83363,2	90118,9	101880,8
O‘z kapitali	27146,6	35693,2	46764,2	52885,4
Qarz kapitali	50640,7	47670	43354,7	48995,4
Asosiy kapital (uzoq muddatli aktivlar)	45510	58993,7	69371,9	70856,0
Aylanma kapital (aylanma aktivlar)	32277,2	24369,6	20747	31024,8
Sotishdan olingan sof tushum	23715	15456,2	19084,8	21569,7
Kapitalning bir kunlik aylanmasi	216,1	231,6	250,3	283,0
Sotishdan olingan yalpi foyda	3217,3	6365,2	9816	10242,9
O‘rtacha ishchilar soni (kishi)	101981	105105	107136	112440
Kapital aylanmasi (yillik aylanishlar soni)	1,7	1,6	1,4	1,3
Umumiy kapitalning rentabelligi (sotish foydasi bo‘yicha) so‘m/so‘m	0,041	0,076	0,109	0,105
O‘z kapitalining rentabelligi so‘m/so‘m	0,118	0,178	0,210	0,194
Qarz kapitalining rentabelligi so‘m/so‘m	0,064	0,133	0,226	0,209
Asosiy kapitalning rentabelligi so‘m/so‘m	0,071	0,108	0,141	0,145
Aylanma kapitalning rentabelligi so‘m/so‘m	0,100	0,261	0,473	0,330
Kapital qaytimi so‘m/so‘m	0,305	0,185	0,212	0,212
Kapital sig‘imi so‘m/so‘m	3,279	5,405	4,717	4,723
Kapital bilan qurollanganlik mlrd so‘m/kishi	0,762	0,793	0,841	0,906
*Izoh: Rentabellik foizlarda olingan koeffitsiyentni 100 ga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.				

Keltirilgan ma’lumotlar tahlili “O‘zbekneftgaz” AJ iqtisodiy resurslaridan foydalanish xususiyatlari bo‘yicha tadqiq etilgan davr davomida muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Rentabellik darajasi bilan ifodalangan eng yuqori samaradorlik qarz mablag‘lari va aylanma resurslar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu ularning yuqori harakatchanligi va ishlab chiqarish hamda realizatsiya jarayonlarida tezkor ishtiroki bilan izohlanadi. Aynan ushbu resurslar hisobidan korxona qisqa muddatli istiqbolda foydaning asosiy qismini shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, 2024-yilda iqtisodiy resurslarning barcha asosiy turlari bo‘yicha foydalilik ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatilgan. Mazkur tendensiya umumiy makroiqtisodiy sharoitlar, jahon energetika bozorlaridagi narxlar o‘zgarishi, shuningdek ichki omillar, jumladan tannarxning oshishi, ishlab chiqarish yuklamasining kamayishi yoki logistika zanjirlaridagi vaqtinchalik uzilishlar


¹⁵ “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.



3-rasm. Iqtisodiy resurslarning turlari bo‘yicha rentabellik (xarajat samaradorligi) dinamikasi¹⁶
